



## NATURAL GEOGRAPHICAL FEATURES OF YANGIYOL DISTRICT

*Almardanov Azamat*

*Master's student*

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [alamrdanovazamat19@gmail.com](mailto:alamrdanovazamat19@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Yangiyol district, climate, soil, agriculture, vegetation, hydrophyte, forest, plain, channels, water bodies, internal waters, land resources.

**Abstract:** This article provides information about the natural resources, climate, land resources, energy, agriculture, canals, water bodies, internal waters, soil and flora of Yangiyol district.

**Received:** 25.12.22

**Accepted:** 27.12.22

**Published:** 29.12.22

## YANGIYO'L TUMANINING TABIIY GEOGRAFIK XUSUSIYATI VA YER RESURSLARI

*Almardanov Azamat*

*Magistratura talabasi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [alamrdanovazamat19@gmail.com](mailto:alamrdanovazamat19@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Yangyo'l tumani, iqlimi, yer resurslari, energiya, qishloq xo'jaligi, kanallar, tuprog'i, o'simligi, gidrofit, to'qay, tekislik.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangyo'l tumani tabiiy resurslari, iqlimi, yer resurslari, energiya, qishloq xo'jaligi, kanallar, suv obyektnari, ichki suvlari, tuprog' va o'simlik dunyosi haqidagi ma'lumotlar berib o'tilgan.

## ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ ОБЪЕКТ И ЗЕМЕЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ ЯНГИЕЛЬСКОГО РАЙОНА

*Алмарданов Азамат*

*студент магистратуры*

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека  
Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [alamrdanovazamat19@gmail.com](mailto:alamrdanovazamat19@gmail.com)*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Янгельский район, климат, почвы, сельское хозяйство, растительность, гидрофит, лес, равнина, русла, водоемы, внутренние воды, земельные ресурсы.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о природных ресурсах, климате, земельных ресурсах, энергетике, сельском хозяйстве, каналах, водоемах, внутренних водах, почве и растительном мире Янгиельского района.

## KIRISH

Hozirgi vaqtda fan-texnikaning yuksak taraqqiy etishi natijasida yuzaga kelgan inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni o'rGANISH, yerlardan foydalanishda sanoat korxonalari va uy-joy qurilishida sug'orilmaydigan hududlarda joylashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ma'lumki, bu muammo geografik jihatlari juda katta va serqirra bo'lib, nihoyatda keng ko'lamdagи xilmasalarni o'z ichiga oladi. Bizning maqsadimiz esa, asosiy e'tiborni kichik bir hudud tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va tabiatini muhofaza qilish muammosining geografik jihatlariga qaratishdan, shuningdek fanimizning nazariy asosini tashkil etuvchi umum geografik qonuniyatlar asosida bu muammolarni tadqiq qilishdan iboratdir.



*I-rasm.* Yangiyo'l tumani ma'muriy hududiy xaritasi.

## ASOSIY QISM

**Iqlimi-** Yangiyo'l tumani iqlimi kontinental bo'lib. Yillik o'rtacha temperatura  $12,5^{\circ} - 13^{\circ}$ . Iyulning o'rtacha temperaturasi  $26^{\circ}$ , yanvarning o'rtacha harorati  $-1^{\circ}, -2$ . Eng sovuq harorat esa  $-30$  gradus. Yillik vegetatsiya davri 210 kun. Yiliغا 280 – 282 mm yog'in tushadi. Tumanning eng issiq oyiga to'g'ri keladi. Yozning eng issiq kunlarida harorat 44 gradusga yetadi.

Harorat tumanning barcha qismida bir xillikni tashkil etmasdan balki hududga qarab o‘zgarib boradi. Bunda haroratning hir xilda tarqalishiga asosiy sabab, yer yuzasining nimalar bilan qoplanganligi, (uvlik,o‘simlik,bino va inshoatlar ) va boshqalar bilan toplanganligi iqlimga ta’sir ko‘rsatadi. Yangiyo‘l tumani iqlimi o‘ziga xos bo‘lib, Chirchiq - Ohangaron okrugining tekislik qismiga to‘g‘ri kelganligi sababli ham yog‘ingarchilik kam. Yog‘inlar asosan bahor-qish-kuz oyalariga to‘g‘ri keladi. Yozda esa uning miqdori keskin kamayib 5-10 foizga to‘g‘ri keladi. Eng sernam fasl bahor fasliga to‘g‘ri keladi. Tumandan oqib o‘tadigan daryo va kanallarga alohida e’tibor qaratilib, ularning nafaqat qirg‘oqlari, balki suv sathini ham o‘rganilmoqda. Yangiyo‘l tuman hududidan Chirchiq daryosi, Kurkuldak, Jo‘n, Bo‘zsuv, Shimoliy Toshkent kanallari va ulardan suv oluvchi ko‘llar, ariqlar oqib o‘tadi.

Shundan kelib chiqqan holda, Gulbahor, Bo‘zsuv, Nov, Qarsadok, Qovunchi kabi shaharlar, Xalqobod, Navbahor, Niyozboshi, Qo‘sheyog‘och, Shuralisoy, Eski-Qovunchi kabi qishloqlarning o‘rganilgan hududlari so‘zimiz isboti.

Tuman hududidan oqib o‘tadigan daryo va kanallarga alohida e’tibor qaratilib, ularning nafaqat qirg‘oqlari, balki suv sathlari imkoniyatlari ham o‘rganildi. Masalan, tuman hududidan oqib o‘tuvchi daryo va kanallar yuzasining 15-20 foizidan foydalanib, juda zarur bo‘lgan toza elektr energiyasini ishlab chiqarish mumkin bo‘ladi.

Bu ishlarini amalga oshirishda geoaxborot tizimlari ma’lumotlaridan foydalanish va ularni qishloq xo‘jaligi ekinlari bo‘yicha oqilona joylashtirish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning prognoz hajmi va sug‘oriladigan yerlar hajmini oshirish katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar natijasida Yangiyo‘l tumani hududidan oqib o‘tuvchi daryolar va kanallar qirg‘oqlari va yuzasining GISdan foydalangan holda quyosh elektr stansiyalarini o‘rnatish uchun eng qulay hududlari xaritasi tuziladi.

GIS ma’lumotlar bazasini o‘rganish natijalari quyidagi tadqiqotlarni o‘tkazish imkonini beradi:

- sug‘oriladigan yerlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida atrof-muhit va energiya tahlili;
- sug‘oriladigan yerlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida atrof-muhit va energiya tahlili;
- uzoq muddatli strategik rejalarini ishlab chiqish;
- zaxira yerlarning hajmi va hosildorligini prognozlash;
- hududda quyosh elektr stansiyalarini o‘rnatish uchun minimal xarajatlar bilan qurilishni amalga oshirish;
- yerlarning sho‘rlanish jarayonini oldini olish yoki uni bir xil holatda saqlash, bashorat qilish va hokazo.

Bo‘zsuv kanali — Chirchiq daryosidan chiqarilgan qadimgi kanal. Bo‘zsuv Chirchiqning o‘ng sohilidagi qadimgi terassalar bo‘ylab shimoli-sharqdan janubi-g‘arbgaga tomon yo‘nalib,

Toshkent shahri hududi, Toshkent viloyati, Qibray Zangiota va Yangiyo‘l tumanlari, Toshkent shahri hududi, o‘tib, Chinoz yaqinida Sirdaryoga quyiladi. Uzunligi 159 km. Boshlanishi qismida suv sarfi 310 m<sup>3</sup>/sek, 10 GESdan quyida 110 m<sup>3</sup> (ortiqcha suv Chirchiq daryosiga tashlanadi). Bo‘zuvning o‘zani egribugri, kengligi 10–20 m. Quyi oqimida 30 m gacha chuqur dara hosil qilgan.

Bo‘zuvdan har ikki tomonga suv sarfi 0,5 m<sup>3</sup>/s dan 35 m<sup>3</sup>/s gacha bo‘lgan, irrigatsiya va sanoat uchun mo‘ljallangan katta - kichik 23 kanal chiqarilgan. Eng yiriklari: o‘ng sohil Qorasuv, Salor, Kaykovus, Anhor Iskandar, Yuqori Toshkent, Jo‘n, Kurkuldak, Niyozboshi, Shimoliy Toshkent kanallari, Bo‘rjar kanallari. Salor, Kaykovus, Qorasuv va Anhor Toshkent shahridan o‘tib, shaharni suv bilan ta’minlaydi.

Bo‘zuv va undan chiqarilgan kanallarning umumiy uzunligi 400 km dan oshadi. Bo‘zuv suvi bilan Toshkent viloyati Zangiota, Qibray, Yangiyo‘l tumanlari va Qozog‘istonning Chimkent viloyatidagi 140 ming hektar yer suv bilan ta’minlanadi.

O‘zbekistondagi birinchi GES — Bo‘zuv GES shu kanalda qurilib, ishga tushirilgan (1926). Kanalda GESlardan tashqari suv to‘suvchi qurilmalar, nasos stansiyalari, suv oluvchi inshootlar, ostonali sharsharalar va boshqa muhandislik inshootlari qurilgan.

Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanining asosiy yer uchastkalari unumdon, sug‘oriladigan yerlardir. O‘z navbatida bu yerlardan foydalanish samaradorligi respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori. Keyingi yillarda qishloq joylarda, jumladan, Yangiyo‘l tumanida sanoat jadal rivojlanmoqda.

Shu munosabat bilan yer resurslaridan samarali foydalanish, ayniqsa, sug‘oriladigan yerlardan maqsadli foydalanish masalasi dolzarb bo‘lib qoldi. Demak, kelgusida tuman hududidan energetika obyektlari, xususan, quyosh elektr stansiyalarini o‘rnatish uchun yer uchastkalari ajratishda jiddiy muammolar yuzaga keladi.

**Tuprog‘i-Yangiyo‘l** tumanining asosiy qismida bo‘z, o‘tloqi - allyuvial tuproqlar keng tarqalgan. Ular o‘zlashterilib madaniy tuproqlarga aylantirilgan. Yangiyo‘l tumanining asosan 300-450 mitr baland bo‘lgan joylarida tipik bo‘z tuproqlar tarqalgan, ularning tarkibidagi chirindi miqdori 1- 1,5 foizni tashkil etadi. Shuningdek tuproqlari o‘tloqi - allyuvial suvlari chuqur joylashgan sharoitlarda rivojlangan va avtomorf tuproqlardir. Grunt suvlari yuza joylashgan yerlarda esa gidromorf tuproqlar rivojlangan. Gidromorf tuproqlarning sernamligi o‘simlik qoplaming yaxshi revojlanishini ta’minlaydi, o‘simlik qoldiqlarining sekin minerallashuvi (anaeyrob parchalanish) esa gumus (chirindi) qatlaming qalin bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bunday tuproqlar o‘tloqi tuproqlar deb ataladi. Gurunt suvlari sathi yana ham yuqori bo‘lganda ( yer yuzasidan 1 metr va undan kam) tuproq yuzasida nam ko‘payib, botqoqli tuproqlar hosil bo‘ladi.

O‘tloqi, botqoqi va botqoqi-o‘tloqi tuproqlar muayyan geomorfologik sharoitlarda va qayirlarida uchraydi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarini oqilona joylashtirishda, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining proqnoz qilinadigan hajmini va sug‘oriladigan yerlar miqdorini, qirg‘oq va yer yuzasining eng qulay hududlarini ko‘paytirishda xarita va rejalar ni tayyorlashda ma’lumotlar geografik axborot tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. GIS yordamida quyosh elektr stantsiyalarini o‘rnatish uchun hududdan oqib o‘tadigan daryolar, kanallar bo‘yi xaritalari tuzildi.

**O‘simliklari** – shakli, tuzilishi va katta-kichikligi turlicha bo‘lgan tirik organizimlar. Deyarli barcha o‘simliklar avtotrof bo‘lib, yorug‘likda fotosintiz reaksiyasi hisobiga organik modda hosil qiladi. Yangiyo‘l tumanning o‘simlik dunyosi ham xilma xil bo‘lib 300-450 mtr balandlikda, asosan, efemer va efemeroi d o‘simliklar keng tarqagan- lola, lolaqizg‘aldoq, rang, qo‘ng‘rbosh, bug‘doyiq, javdar, oq kavrak kabilar o‘sadi. Yangiyo‘l tumanidagi ayrim o‘simliklar gigrofitlar ya’ni sernam joylarda o‘suvchi botqoqlik, zax o‘tloqlar va o‘rmonlar, qayir o‘simliklaridir. Ularning suv iste’molini chegaralaydigan moslamalar yo‘q. Aksincha, ularning tuzilishi va morfologiysi suv ortiqchaligiga moslashgan. Bunday o‘simliklar orasida suv o‘simliklari – *gidrofitlar* alohida ajratiladi. O‘simliklarning iqlimga yer osti va yer ustti suvlari rejimiga ta’siri ularning qanchalik zinch o‘sganligi, miqdori, qanday turlardan iborat ekanligiga juda bog‘liq. Ana shuning uchun ham o‘simliklardan ularni kesib, o‘rib foydalanishga bo‘lgan ehtiyojning har qancha oshib borishiga qaramay, suv rejimini, iqlim va tuproqni, hayvonot olamini saqlashdagi ahamiyatiga putur yetkazmaslik kerak. O‘simliklardan xo‘jalikda foydalanishni rejelashtirganda, daraxtlarning kesilishi, butazorlar va o‘tloqlarning haydalishi natijasida kelib chiqishi mimkin bo‘lgan oqibatlar o‘rganilishi va hisobga olinishi zarurdir.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ushbu maqolada Yangiyo‘l tumani iqlimi unga ta’sir etuvchi omillar va antropogen omillar ham yoritlib o‘tilgan. Iqlim deyarli o‘zgarmasligiga sabab hududning asosan tekislik va sug‘oriladigan maydonlarni iboratligidadir. Iqlimga bog‘liq ravishda tuproq va o‘simlik qoplami ham shakllangan. Bu shakllanish jarayoniga inson aralashuvi ham kata ahamiyat kasb etadi. Chunki ko‘p yillardan beri dehqonchilik qilinib bu tumanda madaniy tuproq va o‘simliklar shakllandi. Tabiiy landshaft hisoblangan to‘qaylar faqat Bo‘zsuv kanali bo‘yida saqlanib qolgan xolos. Tumanning boshqa hududlarida antropogen landshaft hukmron.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Миллый энциклопедияси I-XII. –Т.;2006
2. И.А.Ҳасанов, П.Н.Гуломов Ўзбекистон табиий географияси Тошкент 2006
3. Р. Г‘уломов, К. Гадоев, С. Бердиева Geografik tushuncha va terminlaning izohli lug‘ati -Toshkent 2019

4. O‘.Q.Abdunazarov,M.T.Mirakmalov,R.A.Ibragimova,A.A. Ibragimova Umumiy tabiiy geografiya Toshkent-2018
5. Sh.S. Zokirov, X.R. Toshov Landshaftshunoslik. -T.: “Turon zamin ziyo”, 2016
6. П. Баратов Ўзбекистон табиий географияси. –Т., Ўқитувчи, 1996.
7. Sh. S. Zokirov. “Antrapogen va amaliy landshaftshunoslik” – Toshkent. “Universitet”, 1998 – 68b
8. Ш.С.Зокиров. Кичик худудлар табиий географияси. - Тошкент. “Университет”, 1999. – 120 б
9. <https://en.wikipedia.org>
10. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)